



XX ASR BOSHI O'ZBEK ADABIYOTI

Kabulova Feruza Maxmarejabovna

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani II- maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning II yarmi-XX asr boshi o'zbek adabiyoti keng yoritildi.*

Kalit so'zlar: *kapitalistik, tanqidiy realism, satirik, mafkura, Turon, Qadim Turkiston.*

Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishi. Shu davrda yaratilgan tarixiy-badiiy asarlarda zamonaviy hodisalar ifodasi. Milliy-ozodlik harakatlari (1892, 1898, 1916) hamda uning badiiy adabiyotda ifodalanishi. Ma'rifatparvarlik ijtimoiy-madaniy oqim sifatida. Marifatparvarlarning yangi fan, maorif, madaniyat targ'ibochilari ekanligi. Adabiyotda tanqidiy ruhning ustivor mavqe egallashi (Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar). Yangicha marifat targ'ibi va talqini (Furqat, Behbudiy, Avloniy). Milliy uyg'onish davrining boshlanishi. Bunda adabiyotning roli (Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon). Qadim Turkistonning uchta xonlikka bo'linib ketishi, feodal tarqoqlik, iqtisodiy zaiflik, ilm-ma'rifat taraqqiyotining sustlashuvi vatanimizni chet el bosqinchilarining xurujlariga duchor qildi. Bir tomondan Chor Rossiyasi bosqinchilari zulmi, ikkinchi tomondan ularning malaylariga aylangan mahalliy amaldorlar jabri xalqni holdan toydirdi. Ana shunday tarixiy sharoitda ham adabiyot va san'at xalq ommasiga ma'naviy dalda berish, uni yorug' kunlarga ruhlantirsh vazifasini ado etishdan to'xtab qolmadi. Adabiyotning o'zi ham ijtimoiy-siyosiy hayotning ko'zgusi sifatida taraqqiyotdan to'xtamadi. Janrlarning mazmunan yangilanishi, badiiy adabiyotning xalq hayotiga yaqinlashuvi, ijodiy jarayonda realistik tamoyillarning kuchayishi shular jumlasidandir.

Muqimiy davri o'zbek adabiyotida satiraning yangi bosqichga ko'tarilishi omillarini adabiyotshunos A. Abdug'afurov quyidagicha sharhlaydi: "O'zbekiston territoriyasining Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida... ikki yoqlama zulmning, adolatsizlikning nihoyatda kuchayib ketishi, kapitalistik munosabatlarning tobora yuzaga chiqa borishi, xalqimizning zulm va adolatsizliklarga qarshi o'z ozodligi uchun kurashining faollashuvi, hukmron sinflar va tuzumning tartibqoidalardan noroziligining kundan kunga orta borishi, ikkinchi tomondan... o'zbek adabiyotida tanqidiy realizm metodining shakllanishiga, bu adabiyotda, ayniqsa, satirik yo'nalishning keng rivojlanishiga olib keldi." Badiiy adabiyotda biror yo'nalishning, masalan satiraning taraqqiy etishi va keng qo'llanilishi shoir yashagan hudud bilangina emas, balki ijtimoiy-siyosiy tuzum, voqelik hamda tarixiy vaziyat bilan ham bog'liqdir. Masalan, Muqimiy va Zavqiylarga zamondosh bo'lgan Xorazm adabiy muhiti vakili Avaz O'tar ijodida ham satirik yo'nalish salmoqli o'ringa ega. Avazning "Xalq", "Topar ekan qachon?", "Fidoyi xalqim", "Ulamolarga", "Birovlar" kabi she'rlari ana shu ruhda yozilgan satirik ijodning ajoyib namunalaridir. Bu g'azallarda shoir xalqning xonavayron bo'lganini, zulm ostida qolganini, zamonaning nosoz qurilganini, jaholat hukmronligini achinish va alam, xolislik va haqgo'ylik bilan tasvirlab bergan. Bu davrda Qo'qon adabiy



muhitining maydonga kelishi, yuzlab shoiru adiblar, tarixchi va bastakorlar, san'at ahli barakali ijod qilishi xalqimiz madaniyati va ijtimoiy tafakkuri tarixida yorqin iz qoldirdi. O'ziga xos an'ana tusini olgan zullisonaynlik –ikki tilda ijod qiluvchilar tufayli badiiy, tarixiy asarlar bir-birini to'ldirdi va boyitdi. Ijtimoiy turmushning bugungi va ertangi hayoti qay yo'ldan bormog'i lozimligini aniqlash va rejalashtirish uchun kechagi kunga, aniqrog'i o'tmishga nazar tashlash har qanday fan mutaxassislari uchun sinalgan haqiqatdir. Shunga ko'ra adabiy va madaniy merosimizning o'rganilmagan yoki nisbatan kam varaqlangan sahifalariga zehn solish, ularni Istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan xolis ilmiy tadqiq etish, ulardan ibrat saboqlarini o'rganish – bugunning qadriga yetish va kelajakning izchil taraqqiyot yo'nalishini aniqlash uchun dasturilamal bo'lishi turgan gap. Adabiyotimizning, xususan, otabobolarimizning tafakkur mevalari bo'lmish adabiy merosning hozirgi va kelgusi avlodlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga mustahkam zamin ekanligi haqida haqli ravishda ko'p ta'kidlangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov uqtirganidek, "...O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutmagan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topdi". Shunday ekan, har bir millat, xalq va mamlakatning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rni uning dunyo ilm-fani, san'ati va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi bilan birga otabobolari tomonidan qoldirilgan adabiy va madaniy merosning ahamiyati bilan o'lchanadi va qadrlanadi. Ana shu nuqtai nazarga ko'ra o'tmishga nazar solsak, ko'hna Turonning buyuk tarixiy ijodkorlari beqiyos adabiy meros qoldirgan dunyodagi eng ilg'or mamlakatlardan biri ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Istiqlol sharofati ila ana shu boy adabiy-ma'naviy merosimizni qanday bor bo'lsa shu holicha o'rganish, ilmiy jihatdan xolis tahlil etish va xalqqa taqdim etish imkoniyati yanada kengaydi: Mumtoz satirik asarlarda, xususan, Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari tilida ham yangiliklar va yangilanishlar yuz bera boshladi. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot namunalari xalq orasida ko'p qo'llanadigan, adabiy tildan mustahkam o'rin olmagan so'zlar izchil ishlatila boshladi. Bu hol satirik asarlar tilini xalqqa yanada yaqinlashtirdi, ommalashishini tezlashtirdi. Muqimiy she'rlarining milliy va umumbashariy g'oyalar tashishi, lirik obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyliigi shoirni o'z davri an'analaridan yuqori ko'targan xususiyatlardan biridir. "Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon, e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab etadi". Yurtboshimizning ana shu ko'rsatmalariga javoban bugungi kunda ko'p asrlik adabiyotimiz tarixining mutlaqo o'rganilmagan yoki yaxshi ochib berilmagan qirralarini ko'rsatib berish, biryoqlama talqin qilingan jihatlarini yangicha va xolislik bilan nazardan o'tkazish davr talabiga aylandi. Qo'qon adabiy muhitining namoyandalaridan biri, o'zbek, fors-tojik tilida birday mahorat bilan qalam tebratgan shoir, zamonasining zabardast so'z san'atkori, ijtimoiy-siyosiy hayotga xolis hamda haqqoniy munosabati bilan Sharq xalqlari tarixida yorqin iz qoldirgan Muqimiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni sharhlash, xususan, xalqimiz orasida g'oyat mashhur va bugungi kunda ham sevib o'qilayotgan "Sayohatnoma" asarini ilmiy tekshirish, shoirning she'riy mahoratini o'rganish, adabiyotimiz tarixidagi o'rnini ko'rsatishdir. Buning uchun, avvalo, Mavlono Muqimiy yashab ijod qilgan davr va muhit haqida muayyan



tasavvurga ega bo'lish, shoir ruhlangan adabiy an'analar, u adabiy jarayonga olib kirgan o'ziga xos yangiliklarni tahlilga tortish lozim bo'ladi. XX asr o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o'rinni egallaydi. Bu davrda adabiyot xalq va mamlakatning nafaqat adabiy, balki ijtimoiy hayotida ham muhim rol o'ynadi. Adabiyot feodal turmush tarzi va mustamlakachilik sharoitida har tomonlama ezilgan, o'z vataniga o'zi xo'ja bo'la olmagan xalqni uyg'otishga, uning ongiga Vatan, Hurriyat, ma'rifat g'oyalarini singdirishga kirishdi. Shu davr adabiyoti namoyandalari o'z oldilariga tarix tomonidan qo'yilgan bu ulkan vazifani bajarish uchun ta'lim tizimini isloh qilish, adabiy tilni yangilash, adabiyotning oddiy xalq ommasiga yaqin metodini ishlab chiqish, uni yangi adabiy janr va shakllar bilan boyitish lozimligini tushundilar. Shu narsa ajoyibki, milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari xalqning qanchalik ilg'or qismini tashkil etgan bo'lmasinlar, ularning yangi tarixiy davrga hamnafas va hamqadam bo'lishlarida Ismoilbek Gasprali tomonidan Boqchasaroy (Qrim)da nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining, shuningdek, Orenburg, Ufa, Qohira, Kalkutta singari shaharlarda chop etilgan ilg'or fikrli gazeta va jurnallarning Turkistonga yetib kelishi va tarqalishi muhim omil bo'ldi. Ana shu omil asosida shakllangan, ana shu maktabdan o'tgan XX asr o'zbek adabiyoti qaldirg'ochlari orasida Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bor edi. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy hayot bilan uzviy bog'liqligi va buning qonuniy hol ekanligi, badiiy adabiyotning hukmron mafkura tazyiqida rivojlanishi. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida uchta yirik bosqichning mavjudligi, ularning o'zaro birin-ketinlikda mustaqil va ayni paytda vorisiylik asosida yuzaga kelganligi. Har bir taraqqiyot bosqichining nafaqat mavzu, g'oya va mafkuraviy jihatidan, balki voqelikni in'ikos ettirishning o'ziga xos estetik tamoyillari tizimi ekanligini asoslash. Birinchi bosqich - jadid adabiyoti (1900-1930 yillar). Xalqni, millatni jaholat botqog'idan marifat osmoniga olib chiqish g'oyalarini olg'a surish va bu yo'lda amaliy ishlarga bel bog'lash jadidchilik harakatining ilk bosqichi sifatida (1900-1917). Marifatparvarlik g'oyalariga qo'shimcha milliy ozodlik va mustaqillik g'oyalarining olg'a surilishi jadidchilik harakatining taraqqiy etgan so'nggi bosqichi sifatida (1918- 1929 yillar). Mavzu, g'oya va badiiy shakl jihatidan boyish jadid adabiyotiga xos qonuniyat ekanligini asoslash, badiiy adabiyotdagi targ'ibotchilik hamda tashviqotchilik vazifasining kuchayishi, voqelikni realistik aks ettirish tamoyilining etakchi mavqega ko'tarilishi, adabiyot va ijtimoiy hayot munosabatidagi mohiyatning o'zgarishi, adabiyotning yangi adabiy tur va janrlar bilan boyishi. Bu boyishda xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va o'zga xalqlar adabiyotining tasiri hamda tutgan o'rni; she'riyatda aruz tizimi bilan barmoq tizimining teng mavqega ko'tarilishi; realistik lirika, nasr va yozma dramaturgiyaning vujudga kelishi. Bu jarayonda M.Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Avloniy, Hamza, So'fizoda kabi ijodkorlarning tutgan o'rni, o'zbek adabiyotida realistik roman va hikoya janrlarining qaror topishi. Milliy uyg'onish g'oyalarining paydo bo'lishi, milliy teatrning «tug'ilishi», istiqloq g'oyalarining keng tarqalishida mahalliy matbuot va ijodiy uyushmalarning o'rni. Voqelikning badiiy idrok etish va aks ettirishda yangicha estetik tamoyillarning yuzaga kelishi; adabiyotda milliylik va xalqchilikning qaror topishi, obrazli tafakkur va sodda xalqona uslubga moyillik, milliy madaniy meros hamda xalq tili boyliklariga ahamiyatning kuchayishi. Ikkinchi bosqich - Sho'ro adabiyoti (1930-1980



yillar). XX asr o'zbek adabiyotining ushbu taraqqiyot bosqichi o'z navbatida ikki mustaqil bosqichdan tashkil topganligi: a) adabiyotda siyosiy mafkura hukmronligining qaror topishi va bu hukmronlikni to'la tan olish bosqichi (1930-1960 yillar), adabiyotning sinfiy va partiyaviylikka bo'ysundirilishi, sotsialistik realizimning sho'ro adabiyotidagi yagona ijodiy metod sifatida qabul qilinishi, adabiyotda sotsializm va sotsialistik qurilish g'oyalarining «tarannum» etilishi, proletar adabiyotning boy- feodal hamda, diniy klerikal adabiyotga qarshi ayovsiz kurashga da'vat etilishi, sotsialistik ideal va kommunistik baynalmilallik g'oyalarining baralla ulug'lanishi. Bu davr adabiyotidagi g'oyaviylikning kuchayishi uning badiiylik jihatidan qashshoqlanishiga olib kelinishi. Mamlakatda peshqadam ziyolilarning qatag'on qilinishi, adabiyotda soxtalik, shoirbozlik va quruq ritorikaning yuksak mavqega ega bo'lishi. «Shaklan milliy, mazmunan-sotsialistik adabiyot»larning sun'iy bir-birlariga yaqinlashtirish va milliy adabiyotlar rang-barangligini yo'qotishning bir vositasi sifatida, adabiyotni zamona maddohiga aylantirish, mamlakatni qudratli sanatga ega bo'lgan mamlakatga, qishloq xo'jaligini kollektiv xo'jaligiga aylantirish, savodsizlikni tugatish va madaniy inqilobni amalga oshirish kabilarni adabiyotning bosh mavzuga aylanishi; Tasvir yoki ifodada badiiy shartlilik tamoiylining kuchayishi; badiiy til va uslub borasida ijodkorlar tomonidan izlanishlar olib borilishi, ijod maydoniga yangiyangi yosh iste'dodlarning kirib kelishi, she'riyatda sarbast she'riy tizimi va mansura kabi shakllarning paydo bo'lishi. Turg'unlik davrida ijtimoiy hayotda ulkan o'zgarishlar yuz berganligi, ammo badiiy tafakkurda muayyan evrilishlar, olg'a siljishlar yuz berganligi ko'zga tashlanadi. Uchinchi bosqich - istiqlol davri o'zbek adabiyoti (1990-hozirga qadar). O'zbek xalqi milliy mustaqillikka erishgach, milliy adabiyotning yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligi, bu ulkan hodisaning ijtimoiy tarixiy ildizlari. Istiqlol davri o'zbek adabiyotining bosh belgisi uning sinfiy, partiyaviy va davlat adabiyoti emasligida, so'z san'atining hukmron mafkura qulligidan ozod etilganligida, ijod ahlining erkin ijodkorga, adabiyotning rang-baranglashuvi hamda uning haqiqiy vijdon ishiga aylanganligida. Hozirgi o'zbek adabiyotining sof badiiy san'at sifatida e'tirof etilayotganligi, uning xalq, millat manaviyatini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyatining har qachongidan ko'ra oshganligi. Istiqlol davri adabiyotining dastlabki yillarda turg'unlik yillari nuqsonlarini fosh etishga yuz burishi qonuniy adabiy hodisa sifatida. Bu davr adabiyotida ijodkorga buyurtma berilmasligi, badiiy ijodning ko'ngil va vijdon ishiga aylanganligi shunga qaramay ijodkor inson va jamiyat ma'naviy kamoloti oldida ma'sul ekanligi. Istiqlol davri adabiyotida ijod mahsulining miqdoran kamayishi, sifat jihatidan yuksalish jarayonining inkor qilib bo'lmas qonuniyat ekanligi. Uyga vazifa: Internetdan mavzuga oid yangi ma'lumotlar topish va mavzu asosida 20 ta test savollari tayyorlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saydulla Mirzayev. "XX asr o'zbek adabiyoti". "Yangi asr avlodi", 2005-yil. 4-bet.
2. Sharafiddinov Ozod. Uch cho'qqining biri. - "O'zAS", 2001-yil, 23- noyabr. 34-bet